

O‘zbekiston Respublikasi “Qizil Kitobi”ga kiritilgan begona o‘tlar-Boraginaceae  
oilasining solishtirma tahlili (2009-2019-yil nashrlari misolida)

Andijon Davlat Pedagogika Instituti Biologiya yo‘nalishi 3-bosqich talabasi  
Toshmatova Gulyora Muxitdin qizi  
[toshmatovagulyora24@gmail.com](mailto:toshmatovagulyora24@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi “Qizil Kitobi”ning 4-nashri (2009) va 6-nashri (2019)ga kiritilgan G‘ovzabondoshlar oilasining solishtirma tahlili keltirib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** Qizil Kitob, g‘ovzabondoshlar oilasi, kamyoblik darajasi, endemik turlar, relict turlar, sistematika.

**Аннотация:** В данной статье представлен сравнительный анализ рода Говзабондош, включенного в 4-е (2009 г.) и 6-е издания (2019 г.) «Красной книги» Республики Узбекистан.

**Ключевые слова:** Кизил Китаб, семейство говзабонов, уровень редкости, эндемичные виды, реликтовые виды, систематика.

**Abstract:** This article presents a comparative analysis of the Govzabondosh family included in the 4th edition (2009) and 6th edition (2019) of the "Red Book" of the Republic of Uzbekistan.

**Key words:** Kizil Kitob, family of govzabons, level of rarity, endemic species, relict species, systematics.

O‘zbekistonda “Qizil kitob” ilk bor 1979-yilda ta‘sis etilgan. Mazkur qizil kitobga nabodot olamining kamyob, yo‘qolib ketish xavfi ostidagi turlari haqida ma‘lumot kiritilgan. Bundan ko‘zlangan maqsad, jamoatchilik va davlat idoralari e‘tiborini tabiat muhofazasi masalariga jalb etishdan va turlar genofondini saqlab qolishga ko‘maklashishdan iborat edi.

“Qizil kitob”ning 1984-yilgi nashriga O‘zbekiston florasining yo‘qolib ketish xavfi tug‘ilgan 163 ta tur kiritilgan. Bu turlarning taqdiri bilan Respublika mutahassislari, olimlari muttasil shug‘ullanib kelmoqda. O‘tgan yillar mobaynida olib borilgan kuzatishlar ayrim o‘simlik turlarining soni va maydoni ancha kengayganini ko‘rsatmoqda.

Bir qancha izlanishlar natijasida yana 138ta tur qo‘shilishi aniqlandi. 1998-yilga kelib, “Qizil kitob”ga kiritilgan turlar soni 301 taga yetdi. 2006-yil 325 tur, 2009-yil 326 tur, 2016-yil 313 tur va 2019-yil 314 tur “Qizil kitob”ga kiritilgan.

G‘ovzabondoshlar oilasining ikkinchi nomi kampircho‘pondoshlar oilasi deb ham yuritiladi. Ular Samarqand, Buxoro hududlarida donli ekinlar bilan birga o‘sadi. Uning vakili Kampircho‘pon (*Trichodesma incanum*) begona o‘t sifatida o‘sadi. Bo‘yi 30-100 sm gacha boradi. O‘simlikning hamma qismlari kumushsimon oq tuklar bilan qoplangan. Barglarining ham hamma qismi kumushsimon oq tuklar bilan qoplangan, seret tuxumsimon, poyada juft-juft qarama-qarshi joylashgan hisoblanadi. Poyasining pastki qismi yog‘ochlashib ketgan.

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC  
INNOVATIVE RESEARCH”**

**Issue 7. July 2024**

Barglarining chetlari tekis, cho'ziq nishtarsimon, uchi o'tkir, oldingi va orqa tomoni tuk bilan qoplangan. Barglarining uzunligi 3-8 sm, eni 1.3-2.5 sm.

Samarqand, Buxoro, O'rta Osiyo, Shimoliy Eron, Qozog'iston va O'zbekistondagi dengiz sathidan 400-1100 metr balandlikdagi lalmikor yerlarning hammasida o'sishga moslashgan begona o't hisoblanadi. Kampirchopon zaharli o'simlik hisoblanib urug'ida 2.7% gacha, barg va poyasida 1.5 % gacha alkaloidlar ya'ni zaxar saqlaydi. Tarkibida glikozidlar, organik kislatalar, moylar, filiks kislatalar, zaxarli sinil, alkaloidlar ya'ni zaxar mavjud hisoblanib. Ma'lum miqdorda tibbiyotda ham ishlatishilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi “Qizil kitob”ining 2009-yildagi nashri bo'yicha G'ovzabondoshlar oilasi vakillari haqida ma'lumot. (1-jadval)

Jami turlar soni	Maqomi				Hayot shakli			O'sish holati		O'sish joyi			
	0	1	2	3	Bir yillik	Ikki yillik	Ko'p yillik	Ta biy	Mada niy	Adir	Tog'	Yay lov	Cho'l
7	1	1	5	0	4	1	2	7	0	2	4	0	2

O'simliklar maqomi bo'yicha taqqoslaydigan bo'lsak, 2 maqom (kamyob turlar) ustunlik qiladi. Ya'ni jami 7 turdan 5 tasi 2-status, 1 ta 0-maqom, 1 ta 1- maqom. Bu o'simliklar madaniylashtirilganligi haqida ma'lumot yo'q. Barchasi tabiiy holda o'sadi. O'sish joyi jihatidan sonlar hisobga olinsa jami turlardan oshib ketishi mumkin. Ammo, Boshmaldoqsimon noneya ham adir ham cho'lli joylarda tarqalganligini inobatga olish lozim.

Ushbu 7 ta tur 2009-2019- yillar uchun umumiy hisoblanadi.

Tur nomi	O'zbekcha	Lotincha	Ruscha
1.	Mayda moviygul	Lappula parvula	Липучка мелкая
2.	Nurota moviyguli	Lappula nurativica	Липучка нуратинская
3.	Oqtog' moviyguli	Lappula aktaviensis	Липучка актуаская
4.	Yirik xalqagulli tangabarg	Rindera fornicata	Риндера крупносводиковая
5.	Buxoro g'ichmolasi	Heliotropium bucharicum	Гелиотроп Бухарский



**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC  
INNOVATIVE RESEARCH”**

**Issue 7. July 2024**

6.	Yirik ildizli mehriyoh	Onosma macrorhiza	Оносма крупнокорневая
7.	Boshmaldoqsimon noneya	Nonea calceolaris	Нонея башмачковидная

Bu o’simliklar kamyob endemik o’simliklar hisoblanadi. O’simliklar soni kamayib ketishiga yerlarning o’zlashtirilishi, ko’plab chorva mollarining boqilishi sabab bo’lgan. Madaniylashtirilish borasida bir necha bor harakat qilingan. Ammo samara bermagan. Ularning hammasi urug’idan ko’payadi. Ushbu o’simliklar tog’larda, cho’llarda, adirliklarda, qoldiq tog’larda, qoyatoshlarda o’sishga moslashgan.

O’zbekiston Respublikasi “Qizil kitob”ining 2019-yildagi nashri bo’yicha G’ovzabondoshlar oilasi vakillari haqida ma’lumot. (2-jadval)

Jami turlar soni	Maqomi				Hayot shakli			O’sish holati		O’sish joyi			
	0	1	2	3	Bir yillik	Ikki yillik	Ko’p yillik	Tabiiy	Madaniy	Adir	Tog’	Yaylov	Cho’l
7	0	4	3	0	4	1	2	7	0	2	4	0	2

2019-yil “Qizil kitob”ida 1- maqomga 4 ta vakil, 2-maqomga 3 ta tur kiritilgan. Bir yillik o’simliklar 4 tani, ikki yillik o’simliklarga 1 ta, ko’p yillik o’simliklarga 2 ta kiritilgan. Bularning hammasi tabiiy holda o’sadi. Madaniylashtirilgan vakillari yo’q.

O’simlik o’z kamyoblik darajasini u yoki bu tomonga o’zgartirib turishi ya’ni vaqt o’tishi bilan butunlay yo’qolishi yoki ko’payib muxofaza qilish darajasidan chiqib ketishi mumkin. O’simlik dunyosini muxofaza qilishda keng omma ishtirok etgan taqdirda ijobiy natijalar beradi. Shundagina biz kelgusi avlodlar uchun nabobot olamini bebaho boyligini saqlab qolgan bo’lamiz.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi “Qizil Kitobi” 1-jild. – Toshkent: Chinor ENK, 2009. Bet140-145.
2. O'zbekiston Respublikasi “Qizil Kitobi” 1-jild. – Toshkent: Chinor ENK, 2019. Bet 123-128.
3. Toshboyeva M.Q, Saloyeva A.S, Tojiboyev M.U. O‘zbekiston Respublikasining “Qizil kitobi”ga (2009 va 2019) kiritilgan Brassicaceae oilasi vakillarining solishtirma taxlili //Новости образования: исследование в XXI веке. Vol.1. No.6. 2023.
4. Tojiboyev M.U, Saloyeva A.S, Toshboyeva M.Q, Isaqjonova O.A. The place and medicinal properties of certain species of the genus of Achillea in Uzbekistan plant coverage //European Scholar Journal. Vol.4 No.1. 2023.
5. Toshmatova G.M, Vahobova D.A. O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitobi”ga kiritilgan Polygonaceae oilasining solishtirma tahlili (2009-2019-yil nashrlari misolida)// journal of science-innovative research in uzbekistan” jurnali volume 1, issue 1, 2023.
6. Usmonov D.D, Toshmatova G.M, Vahobova D.A. O‘zbekiston Respublikasi “Qizil Kitobi”ga kiritilgan Sutlamadoshlar oilasining solishtirma taxlili (2009 va 2019-yillar nashrlari misolida)// Yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiya.
7. Abdullayev S.M, Zayniddinova F.Sh, Menglimanamatova R.R. Kampirchopon ( Trichodesma incanum ) o'simligining tuzilishi, o'ziga xos xususiyatlari va ahamiyati// Новости образования: исследование в XXI веке. Vol.1. No.3. 2022.
8. **Toshmatova G.M, Tojiboyev M.U. O'zbekiston Respublikasining “Qizil kitobi”ga (2009 va 2019) kiritilgan Limoniaceae oilasi vakillarining solishtirma tahlili// conference of natural and applied sciences in scientific innovative research” issue 7. July 2024**

**Research Science and  
Innovation House**